



Received: October 29, 2021
Accepted: December 24, 2021
Available online: December 25, 2021

Oqila Bayjanova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

Oqila Bayjanova

PhD student, Uzbekistan State World
Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: oqilabayjanova89@gmail.com

DIPLOMATIK RITORIKAGA NAZARIY YONDASHUV

ANNOTATSIYA

Ritorika nutq madaniyati, notiqlik san'ati sohalari bilan yonma-yon turuvchi fan va u, avvalo, insondagi mavjud qobiliyat va iste'dodni shakllantirishga qaratilgan soha. Ritorika notiqning iste'dodi, qobiliyatini o'rgansa, nutq madaniyati adabiy til va uning me'yorlarini o'rganuvchi fandir. Ritorika murakkab san'at, uni egallash kishidan qunt va chidam, malaka va tajribani talab etadi. Haqiqiy nutq katta mahorat va puxta tayyorgarlikni talab qiladi. Shunday ekan, har bir soha vakili nafaqat notiqlik san'ati qonun-qoidalarini bilishi, unga amal qilgan holda fikrni yetkazib bera olishi lozim. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng barcha sohalar singari diplomatiya sohasi ham o'z maqomini mustahkamladi, rivojlandi. Davlat manfaatlarini tinch yo'l bilan hal qilish maqsadida diplomatiya sohasiga ham alohida e'tibor kuchaydi. Diplomatlarning chiroyli nutqi butun bir xalqning, jamiyatning kelajagi uchun xizmat qiladi. Barcha davlatlarning diplomatiyasi singari O'zbekiston diplomatiyasining ish olib borish uslubi va shakli ham turlichadir. O'zbekiston diplomatiyasi tinchlik vositasining barcha usullaridan foydalanadi. Bunda davlat boshliqlari ikki va ko'p tomonlama, shuningdek, hukumat rahbarlari a'zolari tashqi ishlar vaziri uchrashuv, anjuman konferensiya, muloqot, seminar va boshqa yig'ilishlarga asoslangan holda olib boriladi.

Maqolada diplomatik nutqning prezident nutqi, diplomat nutqi, diplomatik idora vakillari nutqi, rasmiy safar chog'idagi diplomatik nutq,

THEORETICAL APPROACH TO DIPLOMATIC RHETORIC

ANNOTATION

Speech culture is a branch of linguistics, and later, as a result of further researches, another new term, rhetoric, entered the field of linguistics. The culture of rhetoric is a science that goes hand in hand with the field of public speaking, which is primarily focused on the formation of a person's abilities and talents. While rhetoric is the science that studies the talents of the speaker, the culture of speech is the science that studies the literary language and its norms. Rhetoric is a complex art that requires persistence, patience, skill and experience. Real speech requires great skills and careful preparation. Therefore, representatives of any sphere should not only know the rules of public speaking, but also be able to express their opinions in accordance with them. Within the years of independence, the role of diplomacy, like all other spheres, has become invaluable in our country. Special attention will be paid to diplomacy for the peaceful solution of the interests of the state. We see that the beautiful speeches of diplomats serve the future of the whole nation and the whole society. As in the diplomacy of all countries, the style and form of diplomacy in Uzbekistan is different. Uzbek diplomacy uses all the fruitful means of the world practice. It is held on the basis of bilateral and multilateral meetings of heads of state, as well as meetings of heads of government, foreign ministers, plus conferences, seminars and others.

Based on their job responsibilities, we examined the types of diplomatic speeches including presidential speeches, speeches of

diplomatik yozishmalar va diplomatik hujjatlar kabi turlari tadqiq etilgan. Muallif diplomat kim, diplomatik nutq nima, uning qanday turlari mavjud kabi savollarga javob bergan va ushbu masalada doirasida aytilgan fikr-qarashlarni rivojlantirgan.

Kalit soʻzlar: ritorika, diplomat, diplomatik nutq, nutq taʼsirchanligi, birinchi kotib, ikkinchi kotib, attashe.

diplomats, and representatives of diplomatic missions, speeches during official visits, diplomatic correspondence and diplomatic documents. This article gives a quick overview of who a diplomat is, what a diplomatic speech is, and more.

Key words: rhetoric, diplomat, diplomatic speech, speech efficiency, first secretary, second secretary, attaché.

KIRISH

Nutq madaniyati jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat maʼnaviy kamolotining muhim belgisidir. Mamlakatimizda maʼnaviy-maʼrifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi deb eʼlon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari har qachongidan ham koʻproq dolzarblik kasb etmoqda [Rasulov R., Husanov N., Moʻydinov Q., 2006; 3].

Nutq madaniyati haqidagi taʼlimot qadimgi Rim va Afinada shakllangan boʻlsa-da, unga qadar Misr, Assuriya, Bobil va Hindiston kabi mamlakatlarda paydo boʻlganligi notiqlik sanʼati tajribasidan maʼlum. Ushbu davrlarda jamiyatning rivojlanishi, savdo-sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqlikni sanʼat darajasiga koʻtardi. Davlat arboblarning obroʻ eʼtibori va yuqori lavozimlarga koʻtarilishi notiqlik mahoratiga bogʻliq boʻlgan [Rasulov R., Husanov N., Moʻydinov Q., 2006; 5]. Bu aytilgan fikrlar nafaqat tarixga tegishli, balki bugungi kunda ham oʻz salmogʻini yoʻqotmagan. Shunday ekan, davlatimizning kelajagi va tinchligi uchun mehnat qilayotgan barcha soha vakillariga, shu jumladan, diplomatiya hodimlariga ham taalluqli.

Oʻzbek halqi uchun elchi, diplomatiya va diplomat tushunchalari yangilik emas [Azamat Z., 2000; 366., Xayrullayev M.M., 2003; 376].

Respublikamizning davlatlararo tashqi aloqalari oʻzining koʻp asrlik tarixiga ega. Hozirgi Respublikamiz hududida asrlar davomida necha-necha davlatlar paydo boʻldi va inqirozga yuz tutdi. “Elchi, deb yozadi professor G.Hidoyatov, eramizdan avvalgi 172-yilda Buyuk Oʻgʻizxon va Xitoy imperatori oʻrtasida “Tinchlik va qarindoshlik” toʻgʻrisidagi imzolangan bitimda tilga olingan boʻlib, “el” soʻzi bilan oʻzakdosh, elchi ham mana shu davrda paydo boʻlgan” [Hidoyatov G.A., 2001; 75].

Xalqimizdagi qadimdan qoʻllaniladigan “elchiga oʻlim yoʻq” iborasi, fikrimizcha, elchining daxlsizligini bildirgan. Bu kabi misollardan diplomatiya xizmatining oʻziga xos koʻrinishlaridan boʻlgan elchilik davlatchiligimiz singari chuqur ildizga ega ekanligini koʻrish mumkin. Chunki jahonga Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Behbudiy, Choʻlpon, Abdulla Avloniy, Fitrat kabi koʻpdan-koʻp mashhur mutafakkir, maʼrifatparvarlarni yetkazib bergan oʻzbek xalqi tashqi siyosat bobida ham uzoq tarixga ega. Maʼlumki, Forobiy, Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimiz oʻz faoliyatlari bilan xalqlar oʻrtasidagi doʻstlik va hamjihatlikni mustahkamlashga ulkan hissa qoʻshganlar [Rahimbayeva D.V., 2007; 21].

ASOSIY QISM

Diplomatiya xizmatining asrlar davomida sayqallanib, muayyan shakl va yoʻnalish olishini quyidagi manbalarda uchratishi mumkin, yaʼni u, koʻplab boshqa milliy diplomatiyalardan farqli oʻlaroq, deyarli uch ming yillik tarixga ega. Koʻhna yozma yodgorliklardan biri boʻlgan Avestoda diplomatiya munosabatlarining ilk shakllari yuzaga kelganligidan guvohlik beradigan maʼlumotlar bor. Tadqiqot jarayonida diplomatiya terminining etimologiyasi ham eʼtibordan chetda qolmadi.

Diplomacy, *duh PLOH muh see* – is the means of negotiations between nations [Rasulov R., 2020; 295-300] (diplomatiya, *duh PLOH muh see* – *xalqaro muzokaralar* degan maʼnoni anglatadi).

Diplomatik lugʻatda esa diplomatiyaga davlat tashqi siyosatini amalga oshirishning harbiy boʻlmagan vositasi, muayyan sharoit va hal qilinayotgan vazifalarning xususiyatini hisobga olgan holda qoʻllaniladigan amaliy chora-tadbirlar, usul va yoʻllar majmui; davlat rahbarlari va hukumatlarning, tashqi ishlar vazirlarining, tashqi ishlar muassasalarining, xorijdagi diplomatik vakolatxonalarning davlat tashqi siyosati maqsad va vazifalarini amalga oshirish, davlatning, uning xorijdagi muassasa va fuqarolarining huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish borasidagi rasmiy faoliyati sifatida taʼrif berilgan [Diplomatik lugʻat, 1984; 327].

Hozirgi – zamonaviy oʻzbek diplomatiyasi 1991 yili Oʻzbekiston oʻz mustaqilligini qoʻlga kiritgan kundan boshlab tashkil topdi [Rasulov R., Abdullayeva N., 2020; 19].

“Diplomatiya – davlatning tashqi xalqaro siyosatini amalga oshirish, chet mamlakatlar bilan aloqa qilish sohasidagi faoliyati”dir [Oʻzbek tilining izohli lugʻati, 2006; 24]. Diplomatiya tashqi siyosatga oid boʻlib, mazkur siyosatning faol quroli hisoblanadi. Diplomatiya termini dastlab fransuz tilida paydo boʻlib, XVIII asrda (1729–1797 yillarda) Edmund Burk tomonidan ingliz tiliga olib kirilgan. XX asrning ikkinchi yarmida “diplomatiya” termini rus tili orqali oʻzbek tiliga kirib kelgan [Rasulov R., Abdullayeva N., 2020; 19]. Chunonchi, diplomatiya sohasida “Diplomatiya sanʼati” degan tushuncha mavjud va u davlat, xalq milliy manfaatlarini yoʻlida oʻzgalarni oʻz fikriga ishonitirish, uni qoʻllab-quvvatlashlariga erishishni anglatadi. Bunda diplomat oʻz usullaridan – ishonitirish, tahdid va kelishuv usullaridan foydalanishi mumkin. Amir Temur esa davlat arbobi, hukmdor, sarkarda sifatida diplomatiya sanʼatiga ham ega boʻlgan shaxs hisoblanadi. Sohibqiron yengilmas kuch-qudratga ega boʻlishiga qaramay, xalqaro munosabatlarda diplomatiya kuchiga ishongan, va undan samarali foydalangan [Abduxoliq Abdurasul ogʻli, 2002; 8–9]. Masalan u: “Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir toʻgʻri tadbir amalga oshirishi mumkin”, – deydi. Maʼlumki, diplomatiya tashqi siyosatni olib borishdagi muhim qurol hisoblanib, ingliz diplomati Satou diplomatiyaga: “Mustaqil davlatlar orasida rasmiy aloqalarni olib borishdagi aql va xushmuomalalikning qoʻllanilishi – deb taʼrif beradi [Nikolson G., 1941; 38].

Yurtboshimiz I.A. Karimov ham diplomatiya haqida oʻz fikrini quyidagicha bayon etadi: “Hali telefon, telegraf, kommunikatsiya vositalari boʻlmagan bir sharoitda Amir Temur Sharqni Gʻarb bilan tinchlik, tijorat, elchilik yoʻli vositasida

birlashtirishga harakat qilgan. Bizning bugungi siyosatimiz Amir Temurning bu borada olib borgan oliyjanob ishlarining davomidir” [Karimov I.A., 1997; 177]. Bundan tashqari, B.Mannonov o’rta osiyolik olim Xo’ja Samandar Termiziyning XVII asrda bitilgan “Dastur ul-muluk” kitobida diplomatiya sohasiga maxsus bob ajratilgan va unda xoh do’st, xoh dushman tomon bo’lsin, muzokaralar olib borish uchun elchilar tanlanganida, yuboriladigan a’yonlarning qanday xususiyatlarga ega bo’lishlari, ular o’zlarini qanday tutishlari lozimligi kabi diplomatiyaning bir qancha nozik tomonlari aks etganligini yozadi [Mannonov B., 1993; 122].

Oksford lug’atidagi ta’rifda: “Diplomatiya – tashqi aloqalar davlat organlari tomonidan davlat vakolatini ta’minlash, xorijda tinch yo’l bilan uning huquqlarini himoya qilish va tashqi siyosat maqsadlariga erishish demakdir. Tor ma’noda diplomatiya davlatlararo muzokaralar olib borish va shartnomalar imzolash san’atidir”, – deb yozilgan. Fransuz olimi G.Garden: “Diplomatiya atamasi keng ma’noda tashqi aloqalar yoki tashqi ishlar haqidagi fandir, tor ma’noda esa, bu – muzokaralar fani yoki san’atidir” [Qosimov A.M., 1996; 7-8] deya ta’riflagan. Bu borada rus tilshunoslari I.I. Borisenko va L.I. Evtushenko quyidagi ta’rifni keltiradilar: “Diplomatiya – 1. Xalqaro aloqalarni o’rnatish san’ati va tajribasi. 2. Tashqi ishlarni olib borishda aql va uslubdir” [Umarova N., 2020; 500].

Rus tilidagi manbalar o’rganilganda, diplomatiyaga oid fikrlarning aksariyati nemis, fransuz, ingliz tillaridagi mavjud manbalarga tayanilganini ko’rish mumkin. Bunda V.L. Israelyanning tadqiqoti maqsadga muvofiq, desak mubolag’a bo’lmaydi [Israelyan V.L., 1990; 9-13]. Muallif tomonidan “diplomatiya”ning izohi uchun o’ndan ortiq jahon tilshunoslari va siyosatchi olimlarining fikrlari jamlangan. Quyida ularni keltiramiz:

1. Martens: “Diplomatiya, bu – davlatning tashqi aloqalari yoki tashqi siyosat haqidagi fan bo’lib, tor ma’noda esa, u muzokaralar san’ati degan ma’noni anglatadi”;

2. E.Satov: “Diplomatiya, bu – mustaqil davlatlarning hukumatlari o’rtasida, ba’zan esa bu davlatlar va ularning vassallari o’rtasidagi rasmiy munosabatlarni yuritishda razvedka va xushmuomalalikni saqlashdir”;

3. G.Nikolson: “Diplomatiya – bu xalqaro munosabatlarni muzokaralar orqali olib borishdir”;

4. K.Rayt: “Diplomatiya so’zning keng ma’nosida har qanday muzokaralar va bitimlarda xushmuomalalik, fahm-farosat va mahoratdan foydalanish demakdir”;

5. D.MakLellan, V.Obson, F.Sondermann: “Diplomatiya va diplomatlar bizni hal etilmagan muammolar mavjud bo’lganda sabr va yaxshi kayfiyatda muammoni hal qilishga o’rgatishi mumkin”;

6. V.A. Zorin: “Diplomatiya – tashqi aloqalar organlari va davlat vakillarining hukmron sinf manfaatlari bilan belgilanadigan tashqi siyosat vazifalarini bajarish, xorijda uning huquq va manfaatlarini tinch yo’l bn himoya qilish faoliyatidir” [Rasulov R., Abdullaeva N., 2015; 16];

7. J.Kembon: “Diplomatiya, bu – muzokaralar va bitimlar tuzish san’ati, bu halqlar o’rtasidagi munosabatlarda kuch ishlatmaslik yo’llari bilan hal qilish”.

8. E.Satov: “Diplomatiya, bu – mustaqil davlatlar hukumatlari o’rtasidagi ras-

miy aloqalarni yuritishda aql va taktikani qo'llash, hatto undan ham qisqaroq – davlatlar o'rtasida munosabatlarni tinch yo'llar bilan olib borish".

9. Mahalliy ekspertlarning fikricha, "Diplomatiya, bu – xalqaro munosabatlar haqidagi fan va davlatlar rahbarlari va tashqi aloqalarning maxsus organlari: tashqi ishlar vazirliklari, diplomatik vakolatxonalar, mamlakat tashqi siyosatining yo'nalishini belgilashda diplomatlarning ishtiroki to'g'risida muzokaralar o'tkazish san'ati, uni tinch yo'l bilan amalga oshirish uning asosiy maqsadi va vazifasi – davlat va uning fuqarolari manfaatlarini himoya qilishdir [Popov, 2000;15-16].

Taniqli jamoat arbobi N.A. Muhiddinov hamda F.Is'hoqov va F.Abdullayevning maqolalarida Respublika Tashqi Ishlar Ministrligi (vazirligi) faoliyati, alohida olingan arboblarning xususida qiziqarli materiallar berilgan. Jumladan, N.A. Muhiddinovning "Elning fidoyi qizi" ("Верная дочь народа") [Muhiddinov N.A., 1993; 4] maqolasida birinchi diplomat ayol – Zahro Rahimboboyevaning diplomatik faoliyati yoritilgan. Birinchi o'zbekistonlik diplomat ayol Zahro Rahimboboyeva – o'zbek xotin-qizlari orasida yagona, maslahatchi-vakil diplomatik darajasiga ega bo'lgan. Z.Rahimboboyeva 1967-yili Xalqaro Demokratik Xotin-qizlar Federatsiyasi kotibiyatiga ishga tayinlanadi. Shuningdek, Z.Rahimboboyevaning Hindistondagi diplomatiya sohasidagi xizmati bu ikki davlat o'rtasidagi o'zaro do'stlik aloqalarining yanada mustahkamlanishiga sabab bo'ldi. E.Oripovning "Talabchan ustoz" maqolasida [Muhiddinov N.A., 1993; 4] ham bu haqdagi ma'lumotlarni uchratish mumkin.

"Diplomat" so'zining kelib chiqishi masalasi ham fanda o'z echimini topgan bo'lib, uning ma'nosini aniq ifodalaydi: u rasmiy hujjatlar (ishonch yorliqlari)ni anglatuvchi yunoncha "diplom" so'zidan kelib chiqqan. Qadimgi Yunonistonda ushbu hujjatlar elchilarga ularning vasiqalari sifatida taqdim etilgan va hukmdor nomidan ish ko'rish vakolatini bergan.

Diplomatiya tarixchilari Yevropada "ambassador" ("elchi") tushunchasi ilk bor Yuliy Sezarning (mil. av. 102–44 yy.) "Gallar urushi to'g'risida"gi bitiklarida uchraydi, deb hisoblaydilar. Keltcha "ambassador" so'zi dastlab "xizmatkor", "qul" ma'nosini anglatgan. Ma'lumki, harbiy sarkarda yoki hukmdor boshqa tomonga ishongan kishilarini noma bilan jo'nata turib, "Senga o'z xizmatkorimni yuborayapman", deb ta'kidlagan. Boshqa mamlakatlarga o'z hukmdorlarining nomalarini chopar, jarchi va elchilar yetkazgan. Davlatning doimiy vakilini anglatish uchun "ambassador" so'zi Yevropa mamlakatlarida XVI asr o'rtalaridan qo'llanila boshlagan. Bunga qadar Italiyada diplomatik vakillar "notiq-rezident" deb atalgan [Axtamzyan A.A., 2001; 387–397].

Yuqorida keltirilgan misollar bu tushunchaning tor ma'noda (tashqi siyosat doirasida)gi holatini ifoda etadi. Mutaxassislarining fikricha, keng ma'noda "diplomatiya" tushunchasi nafaqat davlatlar, balki har xil sub'yektlar va individlar o'rtasida ham o'zaro munosabat va aloqalarni yo'lga qo'yuvchi kommunikatsiya va representatsiya jarayonini ifodalaydi [Strejneva M.V., Rudenkova D.E., 2016; 119].

Umuman olganda, maxsus professional faoliyatni o'zida mujassamlashtirgan "diplomatiya" tushunchasi kameralistika [Kameralistika., //bse.sci-lib.com/article058245.html] va davlat boshqaruviga oid ingliz tilidagi manbalarda 1645-yil sana-

si bilan tarixga muhrlangan [Nechaeva Yu.V., 2011; 45]. 1693-yildan “diplomaticus” Leybnitsning Xalqaro diplomatik huquq Kodeksida suveren mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlar masalalarini aks ettiruvchi tushuncha sifatida xalqaro munosabatlarga kirib kelgan. Shu davrdan boshlab xalqaro munosabatlardagi o‘zgarishlar ta’sirida “diplomatiya” terminining ma’nosi boyib borgan [Durdiev A.A., 2017; 45]. Ushbu atama hozirgi ma’nosida ilk bor Lyudvig XIVning elchisi bo‘lgan fransuz diplomati Fransua Kaler tomonidan qo‘llanilgan [Popov V.I., 2000; 13].

Ta’kidlash joizki, diplomatik harakatlar urushlarning oldini olishga qaratilgan harakat sifatida “diplomat” tushunchasidan ancha avval yuzaga kelgan. Mutaxassislar ta’kidlaganidek, diplomatiya davlat tashqi siyosatini amalga oshirish usullaridan biri, noharbiy amaliy chora-tadbirlar majmui hisoblanadi [Abdullayeva L., Yuldasheva G., 2005; 30].

Diplomatiya davlatlar, hukumatlar, davlatlarning tashqi aloqalari idoralari rahbarlarining rasmiy faoliyati shaklida hamda tashqi siyosatning maqsad va vazifalariga erishish, shuningdek o‘z davlati va xorijdagi fuqarolarining manfaatlarini himoya qilishga sharoit yaratuvchi diplomatlar tomonidan bevosita amalga oshiriladi. Hozirgi kunda diplomatiyaga ta’rif berishda doimo u hukumat va nohukumat institutlari hamda zo‘rlik ishlatilmaydigan xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi muassasalarning kuch va vositalari majmui ekanligi ta’kidlanadi [Barishnikov D.N., Kostyuk P.B., Tkachenko S.L., 2009; 13].

Diplomatiya so‘nggi yuz yillikda xalqaro munosabatlar tizimida bir davlatning hukmron mavqeni egallashga urinishiga hamda barcha davlatlar o‘rtasida tartibsizlik, boshboshdoqlikka yo‘l qo‘ymaslik maqsadida muvozanatni saqlab turish imkonini yaratadi. Der Derianning e’tiroficha, zamonaviy diplomatiya davlatlarning yakuniy maqsadi bo‘lmish adovatli muhitda o‘zini saqlab qolishning jamoaviy va hissiy in’ikosi sifatida vujudga kelgan [Der Derian J., 1987; 119].

Diplomatiya fenomenini o‘rganishga munosib hissa qo‘shgan britaniyalik nazariyotchi olim G.Nikolsonning qarashlari Oksford lug‘atida o‘z ifodasini topgan. Unda ta’kidlanishicha, “diplomatiya, bu – xalqaro munosabatlarni muzokaralar orqali yuritish; muzokaralarni elchi va vakillar tomonidan boshqarish usuli, diplomatning vazifasi yoki san’atidir” [Oxford Dictionary of English., 2003; 136].

Shu asnoda, zamonaviy diplomatiya nazariyasi tuzilmaviy va funksional jihatdan quyidagi masalalarni ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi:

1) diplomatik munosabatlarning o‘rnatilishi va diplomatik missiyalarning vujudga kelishi;

2) dipmissiyalar va diplomatik korpusni boshqarish uchun tashqi ishlar vazirligi ishini tashkil qilish;

3) diplomatik vakolatxonalarning tashkil qilinishi va tuzilishi;

4) protokol va tartibotlar;

5) diplomatik imtiyoz va immunitetlar;

6) konsullik xizmati;

7) ko‘p tomonlama diplomatiya va xalqaro tashkilotlar;

8) xalqaro huquq va tegishli amaliyot;

- 9) konferensiyalar tashkil qilish va o'tkazish;
- 10) ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik [Feltxem R.Dj., 2004; 304];
- 11) gumanitar va madaniy hamkorlik;
- 12) axborot-tahliliy ishlarni tashkil etish va uning yo'nalishlari [S.M. Mirqosimov bilan bo'lgan suhbat natijasida kiritildi].

Diplomatiya ko'pincha, turli tarixiy davrlarda unga ta'sir ko'rsatadigan omillar bilan birga jarayon, tarixiy hodisa sifatida o'rganiladi. Tashqi siyosat ana shunday muhim omillardan biri bo'lib, diplomatiyani qamrab oladi. Demak, uni o'rganmay turib, tadqiqotning predmeti hamda ijtimoiy munosabatlarning aniq hodisasi sifatidagi diplomatiyani tushunish imkoni bo'lmaydi. Diplomatiya terminiga siyosiy lug'atlarda ham ta'rif berilgan. "Diplomat – tashqi ishlar bilan shug'ullanuvchi idoraning chet davlatlar vakillari bilan aloqada bo'lish yoki muzokaralar olib borish uchun hukumat tomonidan vakil qilingan lavozimli kishi" [Qisqacha siyosiy lug'at, 975; 71] hisoblanadi.

Demosfen yozganidek: "Elchilar qo'l ostida na kemalar, na piyodalar va na qo'rg'onlar bor. Ularning yagona quroli bu so'z va qulay imkoniyatlardir. Muhim muzokaralar ketayotgan paytda bunday imkoniyatlar juda kam bo'ladi. Agar bu imkoniyat qo'ldan boy berilsa, demak, u butun umrga yo'qotiladi. Qulay fursatdan foydalana olmay sustlashgan elchi nafaqat imkoniyatni qo'ldan boy beradi, balki ularni boshqarish huquqini ham yo'qotadi" [Rasulov R., 2020; 19].

Ma'lumki, diplomatlar – oddiy diplomatik etikaga ega bo'lgan, aniq fikr, jumalarning lo'ndaligi bilan ajralib turuvchi va hayratlanarli darajadagi notiq kishilardir, shuningdek, ularning tashqi ko'rinishi ijobiy taassurot qoldiradigan insonlar bo'lishi kerak. "Diplomat – bu mamlakatning ko'zgusi" [Abdurazzaqov B., 2005; 33]. Chunki shu bir inson qiyofasida butun bir mamlakat mujassam. 1992-yil 23-sentyabrda Prezident I.A. Karimov tashabbusi bilan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tashkil etildi. Universitet xalqaro huquq, xalqaro munosabatlar, xalqaro iqtisodiy munosabatlar ixtisosliklari bo'yicha yetuk mutaxassislarni yetkazib kelmoqda. Bugungi kunda ular Respublika Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va Savdo vazirligi, Milliy bank, Milliy axborot agentligi, shu bilan birga xalqaro tashkilotlar va boshqa idoralarda faoliyat ko'rsatmoqdalar. Jumladan M.Sh. Abdullayev, P.M. Aliyev, A.M. A'zamov, I.I. Bekmirzayev, Sh.B. Jondorbekov, I.Zokirov, S.Inog'omov, T.Mamajonov, A.Oyxojayev, O.Oripov, A.G'. Rasulov, F.Rizziyev, B.Urkenboyev, B.Umarov, X.Umarov, E.G'ulomov va A.Haydarov vazirlikda faoliyat olib bordilar. Ular diplomatiya sohasidagi o'z tajriba va imkoniyatlarini mustaqil O'zbekiston tashqi aloqalarini shakllantirishda hamda rivojlantirish borasida namoyon qildilar. Respublikamizda Favqulodda va Muxtor elchi darajasini olgan diplomatlar o'ttizdan ortdi, jumladan, Yu.Abdullayev, A.Abdurahmonov, U.Abdurazzoqov, Sh.Boboxonov, A.Jalilov, S.Inog'omov, H.Karamatov, A.Komilov, I.Mavlonov, T.Mamajonov, S.Mirqosimov, A.Saidov, S.Saidqosimov, S.Safoyev, F.Teshaboyev, A.Fayzullayev, E.Xojayev, A.Shayxov, N.Yoqubov, Sh.Shohalilov, Sh.Qobilov, E.G'aniyev, N.G'oipov, A.Haydarov va boshqalar [Raximboyeva D.V., 2007; 69].

Bundan tashqari, yuqori o'ntalikka kirgan amerikalik mashhur diplomatlar:

Pocahonts (1595–1617), John Jay (1745–1829), John R. Bolton (1948), George F. Kennan (1904–2005), John Mott (1865–1955), Dean Acheson (1893–1971), Jean Kennedy Smith (1928–2020), Richard Holbrooke (1941–2010), Ralf Bunche (1904–1971), J.Christopher Stevens (1960–2012) [[https:// pantheon. world/profile/occupa- tion/diplomat/country/united-states](https://pantheon.world/profile/occupation/diplomat/country/united-states)] va boshqalar .

Diplomatiyani o‘rganishda diplomatning shaxsiy xislatlari, tarbiyaviy jihatlari katta o‘rin egallaydi. Shu munosabat bilan, A.Fayzullayev tomonidan olib borilgan diplomatning motivatsiyasi va shaxsiy sifatleri, diplomatik faoliyatning psixologik jihatlari yoritilgan tadqiqotlarni alohida qayd etish lozim [Fayzullayev A., 2003; 50].

Belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun tashqi ishlar vazirlari sifatida Sh.N. Mahmudova (1991–1992), U.A. Abdurazzoqov (1992–1993), S.S. Safoyev (1993–1993, 2003–2005), S.S. Saidqosimov (1993–1994), A.X. Komilov (1994 – 2003, 2012 – hozirgacha), E.M. G‘aniyev (2005–2006, 2010–2012), V.I. Norov (2006–2010) samarali faoliyat ko‘rsatgan diplomatlardir [Sayfullayev D.B., 2017; 72]

Tarixda ilk bor 1992-yil 3-iyulda “O‘zbekiston Respublikasining diplomatiya xodimlari uchun diplomatiya daraja va martabalari belgilash to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Unda diplomatik vakolatxonalar boshliqlariga, elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlar va konsulliklar huzuridagi vakolatxonalar xodimlariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi markaziy apparati xodimlariga quyidagi diplomatik martabalar – farqlovchi darajalar berish tartibi belgilandi:

- 1) Favqulodda va Muxtor Elchi;
- 2) Birinchi darajali Favqulodda va Muxtor Vakil;
- 3) Ikkinchi darajali Favqulodda va Muxtor Vakil;
- 4) Birinchi darajali maslahatchi;
- 5) Ikkinchi darajali maslahatchi;
- 6) Birinchi darajali birinchi kotib;
- 7) Ikkinchi darajali birinchi kotib;
- 8) Birinchi darajali ikkinchi kotib;
- 9) Ikkinchi darajali ikkinchi kotib;
- 10) Uchinchi kotib;

11) Attashe [Sayfullayev D.B., 2017; 72] kabi diplomatik martabalar ta‘sis etildi.

Tadqiqotchi J.Safarov diplomatik nutqning kelib chiqish tarixi haqida shunday deydi: “Diplomatik nutqning paydo bo‘lishi, o‘sha davrda vujudga kelgan davlatlar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarning shakllanish davridan boshlanadi” [Safarov J.Sh., 2000; 45]. Tilshunos A.Aripova diplomatik nutqqa quyidagicha ta‘rif beradi: “Diplomatik nutq: Biror davlat vakili (diplomatik shaxsning) rasmiy nutqi” [Safarov J.Sh., 2000, 45]dir.

Notiqlik san‘atining antik davrga oid adabiyotlarida diplomatik nutq kengash nutqi (siyosiy nutq, maslahatlashuv nutqi) tarkibida o‘rganilgan bo‘lib [Arastu., 2011; 351, Sitseron, 2007; 441], uning xususiyatlari haqida shunday deyiladi: “Yunon davlatlarida VI asrdan boshlab, bizning eramizgacha elchi etib, jamiyatning eng yaxshi notiqclarini, zukko advokatlarini tayinlashgan. Ular faqat va faqat eng jozibador, serjilo so‘zlardan foydalanishlari shart bo‘lgan [Nikolson, 1941; 22].

Shunday ekan, diplomatik nutq o‘zbek tilida azaldan mavjud [Abdurahmonov G., Mutallibov S., 1967; 540, Yusuf Xos Hojib, 2007; 181] bo‘lib, bu haqda “O‘zbek diplomatiyasi tarixidan” asarida qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. Jumladan, elchining ishlari mutlaq so‘z(lar)dan iborat, (ya’ni so‘zlar orqali bitadi). So‘zi yaxshi bo‘lsa, (u) tilagini topadi [Rasulov R., 2020; 20]. “Azizim, – deya hukmdorga murojaat qiladi Xoja Samandar, – elchini biror joyga jo‘natishda nihoyatda katta e’tibor va ahamiyat bergin, unga safar mohiyati va mazmunini chuqur tushuntir. Chunki elchi podshohning tilidir. Uning kamoloti, aqli, tajribasi guftorida – nutqida oydinlashadi” [Rasulov R., 2020; 20].

Oqil elchi xush kalomlar dilg‘a payvand qilg‘usi,

Ikki yovni bir-biriga do‘stu dilband qilg‘usi.

(Xoja Samandar Termiziy, “Dastur ul-mulk” asari)

XX asrdan boshlab, o‘zbek tilshunosligida – nutq madaniyati fanida diplomatik nutq ijtimoiy-siyosiy notiqlikning bir turi sifatida o‘rganila boshlandi [Inomxo‘jayev S., 1982; 157, Rasulov R., Mo‘dinov Q., 2009; 131,]. Diplomatik nutqning ilk ta’rifi S.Inomxo‘jayevning “Notiqlik san’ati asoslari” kitobida keltiriladi: “Diplomatik nutq – davlat ahamiyatidagi rasmiy nutq bo‘lib, xalqaro mavqega ega ekanligi bilan xarakterlanadi” [Inomxo‘jayev S., 1982; 157]. Siyosatshunos B.A. Omonov esa “Diplomatik nutq – davlat ahamiyatidagi rasmiy nutq bo‘lib, u xalqaro mavqega ega” [Inomxo‘jayev S., 1982; 157] deb, S.Inomxo‘jayevning ta’rifiga to‘liq qo‘shiladi. Ayni vaqtda tadqiqotchi diplomatik nutqni kimlar amalga oshirishini ham aytib o‘tadi. Masalan, “... hozirgi davr davlat arboblari, tashqi ishlar vazirligi, mas’ul xodimlarning rasmiy safar chog‘idagi nutqlari diplomatik nutqqa misol bo‘la oladi” [Rasulov R., 2020; 20]. Qayd etilgan fikrlardan ma’lum bo‘ldiki, diplomatik nutq sub’yekti: diplomatik shaxs, davlat arboblari, tashqi ishlar vazirligi va mas’ul xodimlardir. “Diplomatik til asoslari” o‘quv qo‘llanmasida diplomatik til haqida shunday fikr beriladi: “Diplomatik til ... biror insonning his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari, ruhiy holatini aks ettirmaydi, ilmiy tushunchalarni ifodalamaydi, balki bir butun xalqning yoki mamlakatning manfaatlarini ifoda etadi” [Ko‘chimov Sh., 2002; 29]. Til va nutqning o‘zaro dialektik munosabati nuqtai nazaridan “diplomatik til”ga berilgan ushbu ta’rif bevosita diplomatik nutqqa ham tegishlidir.

Diplomatik nutq VI asrlarda eng jozibador, serjilo so‘zlardan iborat bo‘lgan [Rasulov R.; 20]. VIII–X asrlar – Islom dinining keng tarqalish davri bo‘lib, diplomatik nutq Qur’on oyatlari va hadislardan tuzilgan [Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy., 1992; 151]. XIV–XIX asrlarda – Temuriylar, Boburiylar va Xonliklar davrida doimiy bosqinlar va urushlar ta’sirida diplomatik nutq sulh tuzish uchun xizmat qilgan [Rasulov R., 2020; 20]. Bunday paytlarda diplomatik nutq vakillari vazifasini obro‘li zodagonlar, mahalla oqsoqollari, masjid imomlari va jasur navkarlar o‘taganlar [Xo‘jayev M., 2008].

XX asrda – Sho‘ro davri, mustamlakachi sovet siyosatining targ‘ibot-tashviqot ishlari diplomatik nutqqa joylashtirilgan [Rasulov R., 2020; 21]. XXI asrda esa diplomatik nutq – xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, madaniy aloqalarni mustahkamlash vositasi bo‘lib, unda tomonlar manfaatining tengligi asosiy me’yor qilib olindi

[O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 38].

XXI asrgacha bo‘lgan davrlarda diplomatik nutqning muhim xususiyati axborot yetkazish bo‘lsa, XXI asrdan boshlab bu vazifaning doirasi, qamrovi kengayib, chuqurlashib, axborot almashuviga o‘tiladi. Aniqrog‘i, diplomatik munosabatlar va manfaatlar tenglik asosida olib borilganligi bois diplomatik nutqda ham taraflarning teng axborot almashuvi yo‘lga qo‘yildi. Xullas, hozirgi diplomatik nutq haqida so‘z borganda, davlatlar o‘rtasidagi nodir axborotlarning almashuvi nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra, diplomatik nutqning asosini, mohiyatini eng nodir, eng muhim axborot – tengi yo‘q xabar, ma’lumot tashkil qiladi [Rasulov R., Abdullayeva N., 2015; 24].

Diplomatik nutqning tuzilishi maqsadi va mavzusiga qarab o‘ta rasmiy (tasviriy vositalarsiz, emotsional-ekspressiv so‘zlar ishtirokisiz) va yarim rasmiy (til vositalariga boy) nutqqa bo‘linadi.

Biz tadqiqotimizda diplomatik nutq yuzasidan mingga yaqin faktik materiallarni sinchiklab o‘rgandik, ularni tahlil qildik va quyidagi beshta turga ajratdik [Rasulov R., Abdullayeva N., 2015; 26]. Bular:

1. Prezident nutqi.
2. Diplomat nutqi.
3. Diplomatik doira vakillari nutqi.
4. Rasmiy safar chog‘idagi diplomatik nutqlar.
5. Diplomatik yozishmalar va diplomatik hujjatlar.

1. Prezident nutqi. Prezident nutqida ko‘tarilgan mavzular keng qamrovli bo‘lib, umumbashariy manfaatlar mujassamligi uchun, xalq hayotining tinchligi va barqarorligini ta’minlash uchun xizmat qiladi. Ichki va tashqi siyosatga aloqadorligi bilan alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

2. Diplomat nutqi. Diplomat nutqining kulminatsiyasini (markazini) o‘z davlati va diplomatik missiya olib boradigan o‘zga davlatning o‘zaro munosabatlar ahvoli qandayligi tashkil etadi. Diplomat nutqining kirish qismi diplomatik faoliyat maqsadidan, o‘rta qismi aniq dalillardan, raqamlardan iborat bo‘ladi, yakuniy qismida esa ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarga oid tilaklar bildiriladi.

3. Diplomatik doira vakillari nutqi. Ushbu nutq turidan asosan, diplomatik doira vakillari ishtirok etadigan – brifing, konfirensiya, rasmiy anjuman, saylov kompaniyalari, trening, turli muzokaralar va taqdimot marosimlarida foydalaniladi.

4. Rasmiy safar chog‘idagi diplomatik nutq. Mazkur nutq turidan sayyohlar, mehmonlar, musiqa, kino kabi madaniyat va sport vakillari ishtirok etgan tadbirlarda foydalaniladi. Bunday nutqlar shaxsiy taassurotlarga boyligi bilan o‘ziga xosdir.

5. Diplomatik yozishmalar va diplomatik hujjatlar – har xil turdagi hujjatlarni o‘z ichiga oladi.

Diplomatik nutqning barcha turlaridan ijobiylik kayfiyati muhim jihat hisoblanadi. Ayni vaqtda ko‘rilayotgan masala tanqidiy yoki jiddiy muammoga sabab bo‘lib, ijobiy hal etish imkoni qolmaganda, diplomatik nutq vakillari vazminlik bilan qonunlar yoki shunga oid huquqiy hujjatlarga murojat qilib, yuqori saviyadagi o‘zaro madaniyatni saqlab qoladi. Diplomatik nutqning bunday jihati, uning ijtimoiy-siyosiy notiqlikdagi boshqa nutq turlaridan farqini ko‘rsatadi.

Diplomatik nutq mazmunan quyidagicha tuziladi:

1. Boshlang'ich nuqta: – pozitivlik – muammo – yechim: takliflar, tashabbuslar, vazifalar, fikrlar xilma-xilligi.

2. Yakun: ijobiylik, umidvorlik, tilaklar, shaxsiy taassurotlar.

XULOSA

Yuqorida o'rganilgan manbalar va olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, diplomatik nutq har ikki davlat munosabatlarining faol ishtiroki asosida qurilgan dialogik nutqga egaligi bilan boshqa nutq turlaridan ajralib turadi.

Tadqiqot jarayonida barcha keltirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olgan holda quyidagi xulosalarga keldik:

1. Diplomatik nutqning aniq maqsadi – davlatning xalqaro faoliyati bilan bog'liq ayrim masalalar bo'yicha ma'lumotlar bilan keng auditoriyani xabardor qilishdir.

2. Diplomatik nutqning asosiy xususiyati shundaki, uning har bir ishtirokchisi lisoniy shaxs tomonidan ifodalanadi.

3. Diplomatik nutq har ikki mamlakatning manfaatlariga xizmat qiladi.

4. Diplomatik nutq – nutqning grammatik jihatdan to'g'riligi, sofligi va ishonchligidir.

5. Diplomatik nutqda aniqlik, ko'p ma'nolilik, qisqalik, va soddalik, ishonchlilik mezon hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, I.A. (1997). *Sohibqiron kamolga yetgan yurt*. Asarlar (5-b.). Toshkent: O'zbekiston.
2. Abduholiq, A. (2002). *Qadimgi Farg'ona tarixidan* (Xitoy manbalarida Farg'ona haqida ilk ma'lumotlar) (8-9-b.). Toshkent: Fan.
3. Abdullaeva, L., Yuldasheva, G. (2005). *Terminologicheskii tolkovyi slovar po diplomaticheskomu i konsul'skomu pravu* (s. 30). Toshkent: TDYU.
4. Abdurahmonov, G'., Mutallibov, S. (1967). *Devonu lug'otit turk* (Tarjima) (540-b.). Toshkent.
5. Abdurazzakov, B. (2005, 17 sentyabrya). *Diplomat – eto zerkalo gosudarstva*. *Narodnoe slovo*, s. 4. Tashkent.
6. Arastu. (2011). *Poetika. Axloqi kabir. Ritorika* (351 b.). Toshkent.
7. Aripova, A.H. (2002). *Notiqlik nutqining lisoniy-uslubiy vositalari*. *Fil. fan. nomz. dis.* (73-79-b.). Toshkent.
8. Axtamzyan, A.A. (2001). *Evolutsiya osnovnykh ponyatiy i terminov diplomatii. Rossiyskaya diplomatiya: istoriya i sovremennost* (ss. 387-397). Moskva: ROSSPEN.
9. Azamat, Ziyoy. (2000). *O'zbek davlatchiligi tarixi* (366-b.). Toshkent.
10. Barishnikov, D.N., Kostyuk, R.V., Tkachenko, S.L. (2009). *Effektivnost diplomati* (s. 13). Sankt-Peterburg: VVM.
11. Der, D.J. (1987). *A genealogy of western estrangement* (119 p.). Oxford: Blackwell Publishing.
12. Durdieva, A.A. (2017). *Diplomaticheskie struktury i instrumenty diplomatii Yevropeyskogo Soyuza i gosudarstv-chlenov: sootnosheniye i vzaimosvyaz*. *Dis. kand. polit. nauk*. Moskva.
13. Fayzullaev, A. (2003). *Psixologicheskie aspekty diplomaticheskoy deyatel'nosti*. *Mejdunarodnye otnosheniya*, 3, 50. Moskva.

14. Feltxem, R.D. (2004). *Nastolnaya kniga diplomata* (Perevod) (304 s.). Minsk: OOO "Novoe znanie".
15. Gromko, A.A. (1984). *Diplomaticheskii slovar* (327 s.). Moskva: Nauka.
16. Ho'jaev, M. (2008). *Shermuhammadbek qo'rboshi*. Toshkent.
17. Inomxo'jaev, S. (1982). *Notiqlik san'ati asoslari* (157-b.). Toshkent.
18. Israelyan, V.L. (1990). *Diploma litsom k litsu* (ss. 9-13). Moskva: Mejdunarodnoe otnoshenie.
19. Ko'chimov, Sh. (2002). *Diplomatik til asoslari* (29-b.). Toshkent.
20. Mannonov, B. (1993). O'zbek diplomatiyasi tarixi muammolari. *Sharqshunoslik*, 4, 122. Toshkent: Fan.
21. Muhammad, ibn Ismoil al-Buxoriy. (1992). *Al-jome' as-sahih*. Hadis 4 (151-b.). Toshkent: Qomus.
22. Muhiddinov, N.A. (1993). Vernaya doch naroda. *Pravda Vostoka*, 4.
23. Nechaeva, Yu.V. (2011). Proisxojdienie diplomatii. *Diplomaticheskii vestnik Pridnestrovyia*, 6, 45. Moskva.
24. Nikolson, G. (1941). Diplomatiya (ss. 22-38). Moskva: OGIZ.
25. *Oxford Dictionary of English*. (2003). (136 p.). Oxford: Oxford University Press.
26. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. (2006). (24-b.). Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
27. Popov, V.I. (2000). *Sovremennaya diplomatiya: teoriya i praktika* (ss. 13-16). Moskva: Nauchnaya kniga.
28. *Qisqacha siyosiy lug'at*. (1975). (71-b.). Toshkent: O'zbekiston.
29. Qosimov, A.M. (1996). *Diplomatiya asoslari* (7-8-b.). Toshkent.
30. Rahimbayeva, D.V. (2007). O'zbekistonda diplomatiya xizmatining shakllanish va rivojlanish tarixi (1944-2001-yillar. Tashqi ishlar vazirligi misolida). *Tar. fan. nomz. dis.* (21-69-b). Toshkent.
31. Rasulov, R. (2020). Word valence and syntactic relationship. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(02), 295-300. Tashkent.
32. Rasulov, R., Abdullaeva, N. (2015). *O'zbek diplomatik nutqi* (24-26-b.). Toshkent.
33. Rasulov, R., Abdullaeva, N. (2020). Diplomatiya va diplomatik nutq. *Xorijiy filologiya*, 2, 19-22. Toshkent.
34. Rasulov, R., Mo'yidinov, Q. (1982). *Nutq madaniyati va notiqlik san'ati* (131-b.). Toshkent.
35. Rasulov, R., Xusanov, N., Mo'yidinov, Q. (2006). *Nutq madaniyati va notiqlik san'ati* (3-b.). Toshkent.
36. Safarov, J.Sh. (2000). Struktura diplomaticheskogo diskursa i yego leksiko-frazeologicheskii sostav. *Dis. kand. fil. nauk.* (s. 45). Samarkand.
37. Sayfullaev, D.B. (2017). Mustaqillik davrida O'zbekiston diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi tarixi. *Tar. fan. nom. dis. avtoref.* (72-b). Toshkent.
38. Sitseron. (2007). *Notiqlik haqida ikki risola* (441-b.). Toshkent.
39. Strejneva, M.V., Rudenkova, D.E. (2016). *Yevropeyskiy soyuz: arxitektura vneshney politiki* (s. 119). Moskva: IMEMO RAN.
40. Umarova, N. (2020). Diplomatiya termini haqida. *Science and Education*, 1(7), 499-506.
41. Xidoyatov, G.A. (2001). Diplomatische otnosheniya i diplomaticheskii protocol v Sentralnoy Azii v epoxu Timuridov. *Xalqaro munosabatlar*, 2, 75.
42. Yusuf, Xos Hojib. (2007). *Qutadg'u bilig* (181-b.). Toshkent.
43. bse.sci-lib.com/article058245.html
44. <https://pantheon.world/profile/occupation/diplomat/country/united-states>

REFERENCES

1. Karimov, I.A. (1997). *The country where Sahibkiran grew up*. Works (p. 5). Tashkent: Uzbekistan.
2. *A brief political dictionary*. (1975). (p. 71). Tashkent: Uzbekistan.

3. Abdukholik, A. (2002). *From the history of ancient Fergana* (the first information about Fergana in Chinese sources) (pp. 8-9). Tashkent: Science.
4. Abdullaeva, L., Yuldasheva, G. (2005). *Terminological explanatory dictionary of diplomatic and consular law* (p. 30). Tashkent: TSLU.
5. Abdurahmonov, G., Mutallibov, S. (1967). *Devonian lug'otit turk* (Translation) (p. 540). Tashkent.
6. Abdurazzakov, B. (2005, September 17). A diplomat is a mirror of the state. *People's Word*, p. 4. Tashkent.
7. Aktamzyan, A.A. (2001). *Evolution of basic concepts and terms of diplomacy* (pp. 387–397). Moscow: ROSSPEN.
8. *Annotated dictionary of the Uzbek language*. (2006). (p.24). Tashkent: State Scientific Publishing House “National Encyclopedia of Uzbekistan”.
9. Aripova, A.Kh. (2002). Linguistic and methodological means of oratory. *Abs. Cand. dis. Phil. sci.* (pp. 73-79). Tashkent.
10. Aristotle. (2011). *Poetics. Morality is beautiful. Rhetoric*. (351 p.). Tashkent.
11. Azamat, Ziyo. (2000). *History of the Uzbek statehood*. (p. 366). Tashkent.
12. Baryshnikov, D.N., Kostyuk, R.V., Tkachenko, S.L. (2009). *Diplomatic effectiveness* (p. 13). Saint Petersburg: VVM.
13. Der, D.J. (1987). *A genealogy of western estrangement* (119 p.). Oxford: Blackwell Publishing.
14. Durdieva, A.A. (2017). Diplomatic structures and instruments of diplomacy of the European Union and member states: correlation and relationship. *Cand. dis. Pol. sci.* Moscow.
15. Fayzullaev, A. (2003). Psychological aspects of diplomatic activity. *International relations*, 3, 50. Moscow.
16. Feltxem, R.D. (2004). *Handbook of a diplomat* (304 p.). Minsk: LLC “New knowledge”.
17. Gromko, A.A. (1984). *Diplomatic scientific dictionary* (327 p.). Moscow.
18. Inomkhujayev, S. (1982). *Fundamentals of public speaking* (p. 157). Tashkent.
19. Israelyan, V.L. (1990). *Face to face diploma* (pp. 9-13). Moscow: International Relations.
20. Khidoyatov, G.A. (2001). Diplomatic relations and diplomatic protocol in Central Asia in the Timurid era. *International relations*, 2, 75.
21. Khodjaev, M. (2008). *Shermukhammadbek korboshi*. Tashkent.
22. Kuchimov, Sh. (2002). *Fundamentals of the diplomatic language* (p. 29). Tashkent.
23. Kasimov, A.M. (1996). *Fundamentals of diplomacy* (pp. 7-8). Tashkent.
24. Mannonov, B. (1993). Problems of the history of Uzbek diplomacy. *Oriental studies*, 4, 122. Tashkent: Science.
25. Muhammad, ibn Ismail al-Bukhari. (1992). *Al-jomih as-sahih*. Hadith 4 (p. 151). Tashkent: Komus.
26. Mukhiddinov, N.A. (1993). Faithful daughter of the people. *Truth of the East*, 4.
27. Nechaeva, Yu.V. (2011). *The origin of diplomacy*. *Diplomatic Bulletin of Transnistria*, 6, 45. Moscow.
28. Nicholson, G. (1941). *Diplomacy* (pp. 22-38). Moscow: OGIZ.
29. *Oxford English Dictionary*. (2003). (p. 136). Oxford: Oxford University Press.
30. Popov, V.I. (2000). *Modern diplomacy: theory and practice* (pp. 13-16). Moscow: Scientific book.
31. Rahimbaeva, D.V. (2007). History of the formation and development of the diplomatic service in Uzbekistan (1944-2001. On the example of the Ministry of Foreign Affairs). *Cand. dis. his. sci.* (pp. 21-69). Tashkent.
32. Rasulov, R. (2020). Word valency and syntactic connection. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(02), 295-300. Tashkent.
33. Rasulov, R., Abdullaeva, N. (2015). *Uzbek diplomatic speech* (p. 24). Tashkent.
34. Rasulov, R., Abdullaeva, N. (2020). Diplomacy and diplomatic speech. *Foreign philology*, 2, 19-22. Tashkent.

35. Rasulov, R., Khusanov, N., Muidinov, V.V. (2006). *Culture of speech and public speaking* (p. 3). Tashkent.
36. Rasulov, R., Mozhidinov, K. (1982). *Culture of speech and oratory*, (p. 131). Tashkent.
37. Safarov, Yu.Sh. (2000). The structure of diplomatic discourse and its lexical and phraseological composition. *PhD thes. in phil.* (p. 45). Samarkand.
38. Sayfullaev, D.B., (2017). Formation and development of Uzbek diplomacy in the period of independence. *Abs. DSc dis. in his. scien.* (p. 72). Tashkent.
39. Siceron. (2007). *Two brochures on public speaking* (p. 441). Tashkent.
40. Streineva, M.V., Rudenkova, D.E. (2016). *European Union: Foreign policy architecture.* (p. 119). Moscow: IMEMO RAN.
41. Umarova, N. (2020). About the term diplomacy. *Science and Education*, 1(7), 499-506.
42. Yusuf, Khos Khojib. (2007). *Qutadgu bilig* (p. 181). Tashkent.
43. bse.sci-lib.com/article058245.html
44. <https://pantheon.world/profile/occupation/diplomat/country/united-states>